



Kichik biznesni iqtisodiyotda tutgan o`rni va kreditlashning huquqiy asoslari

Boltayev Telmon Ibragimovich

Osiyo xalqaro universiteti magistri

Annotatsiya: O`zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mulkchilikning isloh qilinishi, xususiy mulkchilikni har tomonlama kengaytirish, kichik biznesni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zi: Korxonani rivojlanritish fondiga, ijtimoiy ishlarga, rezerv fondiga foydadan ajratmalar me'yorini, mehnatga haq to`lash shakli va miqdorini ham o`zlari ixtiyoriy ravishda belgilaydilar.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlari erkinlashuvi va takomillashuviga moslashuvini ta'minlash, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning amaliy imkoniyati, zaruriy asoslari hamda strategik vazifalaridan kelib chiqib, respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yuksaltirishga birlamchi e'tibor qaratilib kelinmoqda va u amalga oshirilayotgan islohotlar tarkibida asosiy o`rinni egallab kelmoqda. Hozirgi kunda bizning iqtisodiy iboralar lug`atimizda ishlatilayotgan bir qator so`zlar, ya'ni mulkdor, tadbirkor, biznes, biznesmen, xususiy korxona, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik kabi tushunchalar mavjud. Biz mazkur tushunchalar qatorida kichik biznes tushunchasiga kengroq ahamiyat qaratishga harakat qilamiz. Kichik biznes bilan shug`ullanuvchi shaxslar tomonidan ularning to`g`ri talqin etilishin ta'minlashdan iborat. Aynan kichik biznes bilan shug`ullanuvchi shaxslar tomonidan uning tog`ri talqin etilishi ular uchun hamda mazkur sohani yanada rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Biznes - ma'lum bir faoliyat bilan shug`ullanish, o`sha faoliyatni o`zining kundalik hayot harakat tarziga aylantirib olish, u bilan doimiy shug`ullanishdir. Biznes o`zidagi iqtisodiy, moliyaviy, tabiiy, ma'naviy,



intellektual imkoniyat, qobiliyat va sharoitlarning ishga solish orqali natijalar olishdir.

Xullas, biznes faollik va yuqori iqtisodiy-ijtimoiy samaralarga erishib, farovon hayot tarzi asoslarini bunyod etishdir. Kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini to'laroq ochib berish uchun uning boshqa iqtisodiy subyektlardan farqli jihatlari, qolaversa, afzalliklari xususida to'xtalib o'tish lozim bo'ladi.

Xususan, amerikalik iqtisodchi R.Styuart kichik biznesning xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tgan:

- kichik biznes ixtisoslashgan mahalliy ehtiyojlarni qondirishga yaxshi moslashgan bo'ladi;
- kichik biznes shaxsga tajribva orttirish imkonini berishi mumkin va o'zlariga keyinchalik kengroq miqyosda qo'l kelishi mumkin;
- ommabop ishlab chiqarilgan mahsulotlar jonga tekkan iste'molchilarga hunarmandlar shaxsiy ish rejasi bo'yicha ishlangan mahsulot taklif etishi mumkin;
- kichik biznes o'z iste'molchisini shaxsan bilishi mumkin bolgan xizmat turlarini taklif etadi;
- yakka mulkdor iste'molchilarining ishonchlariga tayanadi.

Iqtisodchi olim L.Guroning fikricha, kichik biznes quyidagi afzaliklarga ega:

- ko'p tomondan iqtisodiy o'sishning sur'atlarini belgilaydi;
- moddiy, moliyaviy va kadrlar resurslarini samarali taqsimlashga yordam beradi;
- ish o'rinlarini vujudga keltiradi;
- yangi ish joyini tashkil etish yirik korxona qurilishi va ishga tushishiga qaraganda ancha ko'p foyda beradi.

Iqtisodchi olim E.Egamberdiyevning fikriga ko'ra, kichik biznes -xo'jalik yuritishning shunday shakliki, bunda korxonalar davlatga bog'liq bo'lmagan mustaqil faoliyat olib



boradilar. Ular ishlab chiqaradigan mahsuloti turlarini, hajmini o'zlari belgilaydilar; o'z xohishlariga ko'ra, mahsulotni xohlagan bahoda, xohlagan sharoitda sotadilar yoki xizmat ishlarinibajaradilar; korxonani rivojlanritish fondiga, ijtimoiy ishlarga, rezerv fondiga foydadan ajratmalar me'yorini, mehnatga haq to'lash shakli va miqdorini ham o'zlari ixtiyoriy ravishda belgilaydilar; mahalliy sharoitga tez moslashadilar, tezda bir qarorga keladilar va hokazo. Dunyo tajribasi shundan dalolat bermoqdaki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari o'rta va yirik korxonalarga nisbatan bozor talabiga qisqa muddat ichida moslasha oladi, mehnatni tashkil etish, yangi texnika va texnologiyani ishlab chiqatishga joriy etish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini 8 barpo etib, undan samarali foydalanish kichik korxonalarda boshqalariga nisbatan tezroq amalga oshadi.

O'zbekistonda kichik biznes korxonalarini rivojlantirishning to'rt asosiy yo'nalishi:

-davlat mulkini xususiylashtirish yo'li bilan kichik korxonalarni barpo etish (chakana savdo, maishiy xizmat korxonalari va puli xizmat);

-Kichik biznes korxnalarini (savdo vositachilik korxonalari) tashkil etish;

-Monopoliyani tugatish va yirik tuzilmalardan kichik biznesni ajratib olish (uy-joy va kommunal xo.,jalik);

-Yakka tartibda mehnat faoliyatini rivojlantirish va mikrofirmalar, oilaviy pudratni shakllantirish.

Amaldagi qonun hujjatlariga binoan kichik biznes subyektlari bo,,lib quyidagilar hisoblanadi: 4 Yakka tartibdagi tadbirkorlar; **Mikrofirmalar** – ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarining yillik o'rtacha soni 20 kishidan, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo,,lmagan tarmoqlarda 10 kishidan, ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan korxonalar. **Kichik korxona** – yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoatida band bo'lgan xodimlarining



yillik oʻrtacha soni 200 kishidan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilgʻi-energetika va kimyo sanoati, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari etishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat ishlab chiqarish sohaslarida 50 kishidan, fan, ilmiy xizmat koʻrsatish, transport, aloqa, xizmat koʻrsatish sohasi (sugʻurta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boʻqa ishlab chiqarishga aloqador bulmagan sohalarda 25 kishidan oshmagan korxonalar; Dehqon xoʻjaligi – oila aʼzolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshligʻiga berilgan tomorqa er uchastkasida qishloq xoʻjaligi mahsuloti etishtiradigan va realizatsiya qiladigan, yuridik shaxsni tashkil etgan va tashkil etmagan holda faoliyat yuritadigan oilaviy mayda tovar xoʻjaligi; Fermer xoʻjaligi – yuridik shaxs huquqiga ega boʻlgan, ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda tovar, qishloq xoʻjaligi tovari ishlab chiqarish bilan shugʻullanuvchi mustaqil xoʻjalik yurituvchi subyekt. Kichik biznesni qoʻllab-quvvatlash yoʻnalishlari.

1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilish yoʻllarini soddalashtirish.
2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish
3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qoʻllab quvvatlash: - Soliq imtiyozlari berish;
 - Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi;
 - Imtiyozli kreditlash;
 - Buxgalteriya hisobi va hisobotlarini soddalashtirish;
 - Soliq va buxgalteriya hisobotlarini davlat soliq va statistika organlariga taqdim etish davriyligi va muddatlarini qisqartirish;



- Soliq tekshiruvlari va boshqa tekshiruvlarni davriyligini qisqartirish.

O`zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mulkchilikning isloh qilinishi, xususiy mulkchilikni har tomonlama kengaytirish, kichik biznesni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, iqtisodiyotning bir shaklidan boshqa bir shaklga o'tish jarayonida kichik biznes taraqqiyotidavlat uchun uning istiqbolini belgilab beruvchi muhim belgiga aylandi. Chunki aynan katta mablag` taab etmaydigan va resurslarning o'sish tezligini kafolatlovchi kichik biznes korxonalari iqtisodiyotdagi qayta tuzilishlari bilan bog`liq bo`lgan muammolarni nisbatan tez va ortiqcha sarf-xarajatlarsiz yechishga ichki bozorni moliyaviy resurslar chegaralangan bo`lishiga qaramay iste'mol mollari bilan to`ldirishga qodir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Bazarova, M. "EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION". *Modern Science and Research*, vol. 2, no. 10, Nov. 2023, pp. 798-04,
2. Supievn, Bazarova Mamlakat, and Sakhibova Firuza. "STRATEGIC WAYS OF IMPLEMENTING PERSONNEL POLICY IN COMMERCIAL BANKS." *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY* 1.7 (2023): 22-25.
3. Supievn, Bazarova Mamlakat. "USING EFFECTIVE WAYS OF CONDUCTING MARKETING RESEARCH IN INTERNATIONAL COMPANIES." *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities* 11.6 (2023): 624-629.